



TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI

Akbarova Fotima Sodiqjonovna

Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani 11-maktab o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 04-May 2023 yil

KEY WORDS

PISA, kommunikativ, ko'nikma, fanlararo, o'zga tillar, kelajak, yoshlar..

ABSTRACT

Maqolada ona tili fanining o'qitilishida amaliy mashg'ulotlarning o'rne va o'quvchilarni ona tili faniga qiziqishni inobatga olish dolzarbligi haqida bayon etilgan.

Til – inson qalbining ko'zgusidir. Unda nafaqat inson qalbi, balki o'sha xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlari ham aks etib turadi. Bejizga biz til so'ziga ona so'zini egizak qilib aytmaymiz. Shuning uchun ham biz uni onamizdek qadrlashimiz, e'zozlashimiz, saqlashimiz va kelajak avlodga sof holda etkazishimiz lozim. Til insonning libosidir. Bu libosni qanday kiyish har bir insonning o'ziga bog'liq. Ba'zi insonlar oddiy libosni ham go'zal qilib, yarashtirib kiyadi. Ba'zi insonlarda esa har qanday go'zal libos o'z ko'rkini yo'qotadi. Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda bir qancha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Misol tariqasida shuni ta'kidlash joizki, 2030- yilga borib o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun esa pedagoglar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalar talaygina: o'zbek tilining nufuzi, jahondagi o'rni, boshqa tillar bilan bimalol bellasha oladigan qirralarini ko'rsata olishi asosiy vazifadir. Avvalo, o'quvchini ona tili faniga qiziqitirish, unda fanga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ona tilining biz bilmagan sir - sinoatlarini ochishga o'rgatish va, eng muhimi, amalda bajarish kerak. Shu bilan birga, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili fanini o'qitishda turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish, foydalanilayotgan metod va usullarning o'quvchilarga qay darajada samara berayotganini aniqlash hozirgi kunda muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me'yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo'lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib

bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o'rganishga bo'lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog'liq. Til bilgan yaxshi, ammo o'z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o'zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda. O'zbek xonadonlarining farzandini rus tili o'rgatiladigan sinf yoki maktablarga qo'yib bolani til o'rganish bilan bog'liq muammoga duch qilishyapti. Bola nutqida turli xil tildan foydalanish kuzatilyapti. O'zga tillarni o'rganib boshqa millat urf - odatlarini egallashga bo'lgan ishtiyoq, taqlid qilish kabilar kuchaymoqda. Pedagoglardan birinchi navbatda ona tilimizning jahondagi o'rnini, nufuzini o'quvchiga chuqur, juda chuqur singdirib, mehr uyg'otib, sir - sinoatini o'rgatib, boshqa tillar bilan bellasha oladigan qirralarini ko'rsatib undan keyin o'zga tillarni egallashdagi ehtiyoj nimadan iborat ekanligini tushuntira olish talab qilinadi. O'quvchi yangilikka intiluvchan bo'ladi. Har qanday fanni fanlararo bog'lab o'rgatish maqsadga muvofiq. O'quvchini fanga qiziqtirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi bo'lsa, undan keyin dars jarayonida qo'llay oladigan zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardir. Ona tili fani o'quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi.

Fanlarning o'qitilishiga ijobiy ta'sirlar ko'rsatish uchun metodlarning o'rne juda katta. Hozirgi davrda ona tili fani bo'yicha o'quv dastur va rejalarni yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir

INNOV
ACADEMY



fikr almashish asosida harakatga keltiriladi.

Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim.

Keyingi paytlarda bosqichma - bosqich rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida aynan ona tili fanining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad o'quvchi nutqini o'stirishdan iborat. Aynan darsliklar ham so'z boyligini oshirish bilan bog'liq turli mashq va topshiriqlarga urg'u bergan holda yaratilmoqda. Ya'ni so'zlarning shakl va ma'no munosabati, iboralar ma'nodoshligi, o'xshashligi, zid ma'noliligi, arxaik va tarixiy so'zlarning qo'llanilishi, matn ustida ishlash kabi mavzular rangbarangligidan iborat.

2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakillantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga yangi tizim asosida yondashish bo'yicha beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu yangi innovatsiya esa barcha sohalar sigari ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ta'limda maktab tizimini rivojlantirish biz uchun buyuk maqsadga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoev Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent " O'zbekiston", 2016
2. K. Qosimova, S. Matchanov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi" ; Toshkent, "Nosir" nashriyoti". 2009.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonova, A. Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf uchun darslik "Tasvir" Toshkent 2017
4. Қучқоров, Ҳ. Ҳ. (2020). Личность в системе человеческих общение и педагогических взаимоотношений. Innovative achievements in science, 439-441.
5. lex.uz



INNOVATIVE
ACADEMY